



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**MINTAQADA QURILISH SOHASIDAGI INNOVATSION RIVOJLANISHGA TA’SIR
ETUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ
ОТРАСЛИ В РЕГИОНЕ**

**FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE REGIONAL
CONSTRUCTION INDUSTRY**

Aminov Sardorbek Sanjarbekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqada qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalar hajmi, inson kapitali sifati, raqamlashtirish jarayonlari va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash mexanizmlarining qurilish tarmog’i samaradorligiga ta’siri baholangan hamda sohani rivojlantirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: qurilish sohasi, innovatsion rivojlanish, mintaqqa iqtisodiyoti, investitsiyalar, raqamlashtirish, inson kapitali, innovatsion texnologiyalar, infratuzilma, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish.

В статье проанализированы основные факторы, влияющие на инновационное развитие строительной отрасли региона. Оценено воздействие внедрения инновационных технологий, объёмов инвестиций, качества человеческого капитала, процессов цифровизации и механизмов государственной поддержки на эффективность строительного сектора, а также разработаны предложения по его дальнейшему развитию.

Ключевые слова: строительная отрасль, инновационное развитие, региональная экономика, инвестиции, цифровизация, человеческий капитал, инновационные технологии, инфраструктура, конкурентоспособность, устойчивое развитие.

This article analyzes the main factors influencing innovative development in the regional construction industry. The impact of innovative technologies, investment volumes, human capital quality, digitalization processes, and government support mechanisms on the efficiency of the construction sector is assessed, and recommendations for its further development are proposed.

Keywords: construction industry, innovative development, regional economy, investments, digitalization, human capital, innovative technologies, infrastructure, competitiveness, sustainable development.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda qurilish sohasi muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq nafaqat yangi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini yaratish, balki hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, aholi bandligini ta’minlash hamda iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishda ham muhim o’rin egallaydi. Shu sababli qurilish sohasining innovatsion rivojlanishi mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda [1].

Jahon amaliyoti shuni ko’rsatmoqdaki, qurilish tarmog’ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish, energiya tejankor qurilish materiallaridan foydalanish va zamonaviy boshqaruv tizimlarini qo’llash qurilish ishlari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2]. Ayniqsa, BIM (Building Information Modeling), sun’iy intellekt,

avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari va “aqli qurilish” texnologiyalaridan foydalanish qurilish obyektlarining sifatini yaxshilash, xarajatlarni qisqartirish va loyiha muddatlarini optimallashtirish imkonini bermoqda [3].

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, mantiqiy umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar, OECD metodologiyasi, innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi hamda xalqaro tajribalar o‘rganildi [3].

Tadqiqot jarayonida innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy, institutsional, texnologik va ijtimoiy guruhlariga ajratildi. Ushbu omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilinib, ularning qurilish tarmog‘i rivojlanishiga ta’siri baholandi.

O‘zbekiston Respublikasida ham qurilish sohasini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarida qurilish tarmog‘ining texnologik yangilanishi, investitsion faolligini oshirish hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [4]. Biroq mintaqalarda qurilish sohasining innovatsion rivojlanish darajasi bir xil emasligi, innovatsiyalarni joriy etishga ta’sir qiluvchi omillarning hududlar kesimida turlicha namoyon bo‘lishi mazkur masalani chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi mintaqada qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda tarmoqning innovatsion salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mintaqalarda qurilish sohasining innovatsion rivojlanishi iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish, infratuzilma sifatini yaxshilash hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda qurilish tarmog‘ining raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanish va raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi bilan belgilanadi [1]. Shu bois qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda o‘rganish va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanish ko‘plab iqtisodiy, tashkiliy, institutsional va texnologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillar korxonalarning moliyaviy resurslari, kadrlar salohiyati, texnik ta’minlanganlik darajasi va innovatsion boshqaruv tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi omillar davlat siyosati, investitsion muhit, bozor infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik va raqobat muhiti orqali namoyon bo‘ladi [2].

Innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri investitsiya faoliyati hisoblanadi. Investitsiyalar qurilish korxonalarining asosiy fondlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni xarid qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish imkonini yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi mehnat unumdorligini oshirish va qurilish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi [3]. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar zamonaviy boshqaruv tajribasi va ilg‘or texnologiyalar transferini ta’minlaydi.

Tadqiqotlar natijasida qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi jadval orqali tizimlashtirildi.

1-jadval

Mintaqada qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar [1]

Omillar	Asosiy tarkibiy elementlar	Innovatsion rivojlanishga ta’siri
Investitsion omillar	Mahalliy va xorijiy investitsiyalar, kredit resurslari	Texnologik yangilanish va modernizatsiyani ta’minlaydi
Inson kapitali	Malakali kadrlar, ta’lim sifati, kasbiy tayyorgarlik	Innovatsiyalarni yaratish va joriy etishni tezlashtiradi

Texnologik omillar	BIM, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish	Mehnat unumdorligi va sifatni oshiradi
Institutsional omillar	Qonunchilik, davlat dasturlari, rag'batlantirish mexanizmlari	Innovatsion faoliyat uchun qulay muhit yaratadi
Infratuzilmaviy omillar	Transport, logistika, energetika tizimlari	Qurilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi
Ilmiy-innovatsion omillar	Ilmiy tadqiqotlar, texnoparklar, innovatsion markazlar	Yangi texnologiyalar ishlab chiqilishini rag'batlantiradi
Raqobat omillari	Bozor muhiti va raqobat darajasi	Korxonalarni innovatsion faoliyatga undaydi

Izoh: Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish ko'p omili jarayon bo'lib, uning samaradorligi alohida omillarning emas, balki ularning o'zaro integratsiyalashgan holdagi ta'siri bilan belgilanadi.

Qurilish sohasida innovatsion rivojlanishni belgilovchi yana bir muhim omil inson kapitalidir. Malakali muhandislar, loyiha menejerlari, arxitektorlar va texnik mutaxassislarning mavjudligi innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Qurilish tarmog'ida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi mutaxassislarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va qurilish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi [4].

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham qurilish sohasidagi innovatsion jarayonlarning jadallashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish dasturlari korxonalarning innovatsion faolligini oshiradi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish qurilish tarmog'iga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish imkonini kengaytiradi [6].

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanish darajasi ham innovatsion taraqqiyotga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy energiya tejankor, ekologik xavfsiz va yuqori mustahkamlikka ega qurilish materiallarini ishlab chiqarish qurilish obyektlarining sifatini oshirish bilan birga ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi. Ayniqsa, “yashil qurilish” konsepsiyasi asosida ishlab chiqarilayotgan innovatsion materiallar xalqaro standartlarga mos qurilish obyektlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanganligi ham innovatsion rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Transport-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika markazlari va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi qurilish loyihalarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish imkonini yaratadi. Infratuzilma rivojlangan hududlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari yuqori bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqalarda qurilish sohasining innovatsion rivojlanish darajasi ko'p jihatdan ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga bog'liq. Innovatsion ekotizimning samarali faoliyat yuritishi uchun oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, texnoparklar va qurilish korxonalari o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalarini rivojlantirish zarur. Bunday hamkorlik yangi texnologiyalarni yaratish, sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish jarayonlarini jadallashtiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, mintaqada qurilish sohasining innovatsion rivojlanishiga investitsion faollik, inson kapitali sifati, raqamlashtirish darajasi, institutsional qo'llab-quvvatlash, infratuzilmaning rivojlanganligi va ilmiy-innovatsion salohiyat eng kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash qurilish tarmog'ining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mintaqalarda innovatsion qurilish texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va investitsion muhitni yanada yaxshilash istiqboldagi ustuvor vazifalar sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Olingan natijalar Schumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi va Rogersning innovatsiyalar diffuziyasi konsepsiyasi bilan mos keladi [1; 4]. Xususan, innovatsion faoliyatning

muvaffaqiyati nafaqat texnologik yangiliklarga, balki ularni qabul qilish va amaliyotga joriy etish imkoniyatlariga ham bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qurilish sohasida innovatsiyalarni joriy etishda asosiy muammolar sifatida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda ilmiy ishlanmalarning tijoratlashuv darajasi pastligi namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi ushbu muammolarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion qurilish texnologiyalarini joriy etishda davlat-xususiy sheriklik, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda investitsion muhitning jozibadorligi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli mintaqalarda innovatsion ekotizimni rivojlantirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mintaqada qurilish sohasining innovatsion rivojlanishi investitsion faollik, inson kapitali sifati, raqamlashtirish darajasi, ilmiy-innovatsion salohiyat hamda davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional sharoitlarga bevosita bog‘liq. Qurilish tarmog‘ida innovatsiyalarni jadallashtirish uchun BIM texnologiyalari va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, ilmiy muassasalar hamda qurilish korxonalari hamkorligini kuchaytirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qurilish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun hududlar kesimida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi innovatsion loyihalar ulushini ko‘paytirish zarur. Bu esa qurilish tarmog‘ining texnologik yangilanishini tezlashtirib, mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. – New York: Oxford University Press, 1934.
2. Drucker P.F. *Innovation and Entrepreneurship*. – New York: Harper Business, 2014.
3. OECD. *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation*. – Paris: OECD Publishing, 2018.
4. Rogers E.M. *Diffusion of Innovations*. – 5th Edition. – New York: Free Press, 2003.
5. Eastman C., Teicholz P., Sacks R., Liston K. *BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling*. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2018.